

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“KIMYO VA KIMYOVIY TEXNOLOGIYANING
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**

Ilmiy-amaliy konferensiya

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
2023 yil**

Tashkiliy qo'mita:

Sobirov Bahodir Boypo'latovich- Professor, texnika fanlari doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Nasridinov Ilhom Burxoniddinovich– dotsent, texnika fanlari nomzodi, Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich- dotsent, fizika-matematika fanlari nomzodi, Navoiy davlat pedagogika instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori

Shodiyev Xamza Ro'ziqulovich- o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Jumaboyev Bahodir Yerejepovich- dosent, biologiya fanlari nomzodi, Navoiy davlat pedagogika institutining Tabiiy fanlari fakulteti dekani

Xamroyev Kamolliddin Shaxobiddinovich - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası mudiri

Karimova Dilorom Amonovna- Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası professori, kimyo fanlari nomzodi

Xatamova Muhabbat Sattarovna - Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

Yangiboyev Saparkul - Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

Sultonov Shavkat Abdullayevich - Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası dotsenti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Axadov Mamurjon Sharipovich- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası katta o'qituvchisi

Omanov Behruzjon Shuxrat og'li - texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası katta o'qituvchisi

3.Тиллоев, Л. И., Усмонов, Х. Р. У., & Хамидов, Д. Г. (2020). ТЕХНИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТХОДОВ В ГАЗОВЫХ ХИМИЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ. *Universum: технические науки*, (5-2 (74))

4. Муродова, Ю. М. К., Муродов, М. Н., Сатторов, М. О., & Тиллоев, Л. И. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ И СВОЙСТВ ДИЗЕЛЬНЫХ ТОПЛИВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПОДАЧУ И СМЕСЕОБРАЗОВАНИЕ. *Вопросы науки и образования*, (23 (107)).

5. Муродова, Ю. М. К., Муродов, М. Н., Тиллоев, Л. И., & Сатторов, М. О. (2020). ИЗУЧЕНИЕ МЕТОДОВ ПОЛУЧЕНИЯ МЕТАНОЛА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ВЫСОКООКТАНОВЫХ БЕНЗИНОВ. *Вопросы науки и образования*, (23 (107)).


FAOL BO'YOQLAR BILAN GUL BOSILGAN IPAK TOLALI MATOLARNING KOLORISTIK XOSSALARI

Amonov M.R., Sayfilloyeva Sh.D.

Buxoro davlat universiteti

Hozirgi vaqtda to'qimachilik sanoatlarida qo'llanib kelinayotgan turli xil sintetik materiallar asosan gomo va sopolimerlar asosida olingan polimer mahsulotlari qo'llanib kelinmoqda. Ammo bu materiallar qimmatbaho bo'lib ularni olish texnologiyasi murakkab tuzilishga ega. Shu bilan birga bu polimer sistemalar polifunksionallik xossasiga ega emas. Mato sirtidan yuvilish darajasi yomonroq. Shu bilan birga mato yuzasiga bo'yoqning singish darajasi ko'rsatkichi pastroq bo'ladi hamda ipak tolali matolarga gul bosish jarayonini qiyinlashtiradi. Bo'yoqning me'yordan ortiq sarf bo'lishiga olib keladi.

Gul bosish uchun tayyorlangan bo'yoq turli xil vaqtlar, ya'ni 1, 2 va 12 soatlar davomida saqlandi. Bu bo'yoqlar ipak tolali matolarga gul bosish uchun qo'llanib, faol bo'yoqdan foydalanish unumdorligi topildi. Olingan tadqiqot natijalari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Faol bo'yoqdan foydalanish unumdorligining vaqt birligi ichida o'zgarishi: 1-Ishlab chiqilgan quyuqlashtiruvchi; 2-KMK-4 %-li eritmasi asosida ishlab chiqilgan quyuqlashtiruvchi.


2-rasmda KMK va taklif etilayotgan quyuqlashtiruvchining fiksatsiyalanish darajasi hamda kraxmal miqdorining o'zgarishiga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.

KMK asosida ishlab chiqilgan quyuqlashtiruvchi bilan ipak tolali matoga gul bosish natijasida bo'yoqning fiksatsiyalanish darajasi taklif etilayotgan quyuqlashtiruvchi asosida gul bosilgan matodagi bo'yoqning fiksatsiya darajasiga nisbatan pastroq natija ko'rsatdi. Tajribalarda bu hodisa isbotlandi [1-3].

2-rasmdan ma'lumki kraxmal, PAA, PVA va karboksimetil sellulozaning natriyli tuzi asosida ishlab chiqilgan quyuqlashtiruvchi amalda ishlab chiqarishda qo'llanib kelinayotgan KMK

asosida ishlab chiqilgan quyuqlashtiruvchiga nisbatan bo'yoqning ipak tolali matoga yuqori fiksatsiya bo'lishi bilan ahamiyatli ekanligini ko'rsatdi.

Matodagi rang intensivligi quyuqlashtiruvchini tashkil etgan komponentlar nisbatiga va tarkibiga bog'liq ekanligi tadqiqot jarayonida aniqlandi. Ipak tolali matolarga gul bosish uchun quyuqlashtiruvchilar sifatida taklif etilayotgan yangi tarkibni ipak sanoatida qo'llash orqali yuqori samaraga erishish mumkin.



2-rasm. Bo'yoqning fiksatsiya darajasi va komponentlar konsentratsiyasi va komponentlar tabiatining ta'siri: 1-kraxmal, PAA, PVA va karboksimetilsellyulozaning natriyli tuzi asosida ishlab chiqilgan quyuqlashtiruvchi, 2-KMK asosida ishlab chiqilgan quyuqlashtiruvchi.

Bo'yoqning fiksatsiya bo'lishi va matoning yuvish bosqichi korxonada standartlari asosida amalga oshirildi. Amalda ishlab chiqarishda qo'llanib kelinayotgan quyuqlashtiruvchi (DGT) bilan yangi tarkibli quyuqlashtiruvchi asosida ipak tolali matoga gul bosilgach matoning koloristik xossalari o'rganildi va koloristik xossalarning taqqoslanishi jadvalda keltirilgan.

jadval

Gul bosilgan matoning koloristik xossalari

Ko'rsatkichlar	An'anaviy tarkib (DGT)	Taklif etilayotgan tarkib
Qovushqoqlik (Puaz)	256	240
40°S da yuvishga chidamliligi, ball	5/5	5/5
Fiksatsiya darajasi, %	94,75	94,41
Oquvchanlik chegarasi, g/sm ²	11,4	12

Ishlab chiqarishda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, ipak tolali matolarga gul bosish uchun an'anaviy quyuqlashtiruvchiga nisbatan taklif etilayotgan quyuqlashtiruvchini qo'llash orqali yuqori sifat ko'rsatkichlarga ega bo'lish mumkinligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Эшонкулова Д.И., Амонов М.Р, Муродов Д.М, Хотамов М.Х. Свойства шликующее-связывающих полимерных композиций применяемых при набивке шелковой ткани//Развитие науки и технологий. Научно-технический журнал.2021.-№ 2.- С. 35-41.

2.Эшанкулова Д.И, Муродов Д.М, Хотамов М.Х, Амонов М.Р .Оценка эффективности применения полимерных вязких систем при печатании шелковых материалов активными

красителями.//Научный вестник Наманганского государственного университета.2021. -№ 7-С. 25-32.

3.Эшанкулова Д.И .Влияние концентрации синтетических полимеров на вязкость загущающей композиции//Universum :технические науки:научный журнал.2022.-№6(99)С.-10-13.

YANGI TARKIBLI QUYUQLASHTIRUVCHI BILAN GUL BOSILGAN MATONING EKSPLUATATSION XOSSALAR

*Amonov M.R., Sayfilloyeva Sh.D.
Buxoro davlat universiteti*

Quyushtiruvchilar ipak tolali matolarning sirt yuzasiga faol bo'yoqning singishi va fiksatsiya bo'lishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Quyushtiruvchilar tufayli matoning sirtida yupqa plyonka hosil bo'ladi, buning natijasida quyushtiruvchi ipak tolali mato bilan bo'yoq o'zaro ta'sirlashishini ta'minlaydi. Gul bosishning texnologik jarayonida bu eng muhim bosqich hisoblanadi. Eng asosiysi jarayon iqtisodiy jihatdan qulay, ishlab chiqarish hajmi keng, hamda bo'yoqning mato sirtiga singishi yuqori bo'lishi lozim. Texnologik siklning buzilishi ishlab chiqarish sifatini kamayishiga, bo'yoqning fiksatsiya darajasi pasayishiga olib keladi. Bu sifatli ipak tolali matolarga bo'lgan talablarni qondirmaydi.

Taklif etilayotgan yangi tarkibli quyushtiruvchi orqali ipak tolali matoning sirt yuzasida elastik, yupqa yelimlanish xususiyati yaxshi bo'lgan plyonka hosil qilish mumkin. Ko'pgina tajribalar va tadqiqot jarayonlarida bu o'z isbotini topdi [1-2].

Ilmiy-texnikaviy izlanishlar davomida yangi tarkibli quyushtiruvchi asosida ipak tolali matolarga gul bosish jarayonida termofiksatsiya quyidagi haroratlarda olib borildi: 90°C, 100°C, 102°C, 105°C. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari jadvalda keltirilgan.

jadval

Termofiksatsiya jarayonidan so'ng gul bosilgan ipak tolali matoning ekspluatatsion xossalari

Fiksatsiya harorati, °C	Fiksatsiya vaqti, min	Rang mustahkamligi, ballar			
		Quruq ishqa-Lanishga	Ho'l ishqa-lanishga	Yuvish-ga	Terlash-ga
90°C	3	5/3	5/3	5/3	5/3
	5	5/4	5/3	5/3	5/3
100°C	3	5/4	5/3	5/4	5/3
102°C	4	5/4	5/4	5/4	5/4
105°C	3	5/5	5/4	5/5	5/5

Olingan natijalar tahlilidan (jadval) ko'rinib turibdiki, 90°C haroratda fiksatsiya qilingan matoning rang mustahkamligi quruq, ho'l ishqalanishga, terlashga chidamliligi va yuvishga chidamliligi 3 ballni ko'rsatdi. Ushbu ko'rsatkichlarni yaxshilash maqsadida termofiksatsiya harorati 105°C gacha oshirildi. Termofiksatsiyadan o'tgan ipak tolali matodagi rangning